

TALABANING RAQAMLI PORTFELI VA KOMPETENSIYALARNI BAHOLASH TIZIMI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18396918>

Madaminov Akmal Yusupovich

Osiyo Xalqaro Universiteti

MM3-TAT-25 magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabanning raqamli portfelidan foydalanish va u orqali kompetensiyalarni baholashning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Raqamli portfel talabanning o'quv, ilmiy va amaliy faoliyatini tizimli ravishda aks ettiruvchi zamonaviy baholash vositasi sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida raqamli portfelning afzalliklari, baholash mezonlari va amaliyotga joriy etish mexanizmlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitida ta'lim sifati va shaffof baholashni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

raqamli portfel, kompetensiya, baholash tizimi, ta'lim sifati, raqamli ta'lim, refleksiya.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методические основы использования цифрового портфеля студента и оценки его компетенций в системе высшего образования. Цифровое портфолио анализируется как современный инструмент оценки, отражающий учебную, научную и практическую деятельность обучающегося. Раскрываются преимущества цифрового портфеля, критерии оценки компетенций и механизмы его внедрения в образовательный процесс. Полученные результаты способствуют повышению качества образования и обеспечению объективности оценки в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова

цифровое портфолио, компетенция, система оценки, качество образования, цифровое обучение, рефлексия.

Annotation

This article examines the theoretical and methodological foundations of using students' digital portfolios and assessing competencies in higher education. The

digital portfolio is analyzed as a modern assessment tool that systematically reflects students' academic, scientific, and practical activities. The advantages of digital portfolios, competency-based assessment criteria, and implementation mechanisms are discussed. The findings contribute to improving educational quality and ensuring transparent and objective assessment in a digital learning environment.

Keywords

digital portfolio, competence, assessment system, educational quality, digital education, reflection.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va ularda mavjud ma'lumotlar bazasidan foydalanish bilan qisqa vaqt ichida ko'plab ma'lumotlarga erishish bilan birga xodimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning saqlanishi hamda qayta ishlanishiga talab ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlar qatorida mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalardan foydalangan holda masofadan turib ma'lumotlar almashish, baholash, ko'rib chiqish, qayta ishlash kabi xizmatlarni yo'lga qo'yish va foydalanishga kiritish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁸²gi farmoniga asosan mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ta'lim, ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni talab etmoqda.

Bu esa o'z ta'lim tizimiga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni Oliy ta'lim muassasalarida ham ta'lim natijalarini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki talabning amaliy faoliyati, mustaqil ishlari va kasbiy kompetensiyalarini inobatga olgan holda baholash zarurati ortishi bilan talabning raqamli portfeli ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.



Raqamli portfel talabning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini aks ettiruvchi, uning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga xizmat qiluvchi samarali vosita

⁸² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁸²gi Farmoni.

hisoblanmoqda. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv esa ta'lim natijalarini aniqlash va baholashning zamonaviy modeli sifatida raqamli portfel bilan uzviy bog'liqligini keltirib chiqarmoqda.

Talabalar o'z mutaxassisligiga tegishli yangi axborotlarni tezkor izlab topish va ishlov berish, ularda axborot-kommunikativlik, loyihalash, konstruksiyalash, boshqaruv, tadqiqotchilik kabi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, o'z-o'zini faollashtirish, boshqarish va baholash, xorijiy tillarni o'zlashtirish, faoliyatni tanqidiy tahlil qilish va jamoaviy ishlash, qaror qabul qilish, doimiy ravishda yangi g'oya, texnologiyalarni izlash asosida raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Asosiy qism

Raqamli portfel tushunchasi va mazmuni.

Raqamli portfel - bu talabaning o'quv jarayonidagi yutuqlari, ijodiy ishlari, loyihalari, ilmiy izlanishlari va refleksiylarini elektron shaklda jamlovchi tizimdir. Ushbu tizim nafaqat baholash vositasi, balki talabaning o'z-o'zini tahlil qilish va rivojlantirishiga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmdir. Tizimdan foydalanish bilan talaba o'zining ta'lim sohasida bosib o'tgan yo'li va erishgan yutuqlarini doimiy kuzatib borish bilsn uning yanada o'z ustida ishlashi va undanda yanada yuqoriroq yutuqlarga harakat qilishga undaydi.

Raqamli portfel quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- o'quv topshiriqlari va loyihalar;
- ilmiy maqolalar, tezislar;
- amaliyot va tajriba hisobotlari;
- kompetensiyalarni aks ettiruvchi dalillar;
- reflektiv yozuvlar.

Kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi.

Kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi talabaning bilimini amalda qo'llash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan. Ushbu tizimda baholash quyidagi kompetensiyalar asosida amalga oshiriladi:

- kasbiy kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya;
- axborot-kommunikatsion kompetensiya;
- ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar.

Raqamli portfel mazkur kompetensiyalarni baholashda daliliy asos bo'lib xizmat qiladi va subyektiv baholashning oldini oladi.

Raqamli portfel asosida baholash quyidagi afzalliklarga ega:

- baholashning shaffofligi va obyektivligi;

- talabaning individual rivojlanishini kuzatish imkoniyati;
- o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ish beruvchilar uchun talabaning real salohiyatini namoyish etish.

Shuningdek, raqamli portfel talabaning raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mehnat bozori oliy o'quv bilim yurtlarini bitiruvchilaridan faqat nazariy bilim emas, balki mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, axborotni tahlil qilish, jamoada ishlash va kasbiy vaziyatlarga moslashish kabi kompetensiyalarni talab etmoqda. Shu sababli ta'lim natijalarini baholashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv talabaning real faoliyati natijalariga asoslangan baholash vositalarini joriy etishni taqozo qiladi.


Ana shunday zamonaviy baholash vositalaridan biri bu - talabaning raqamli portfeli hisoblanadi. Raqamli portfel talabaning o'quv jarayonidagi barcha yutuqlari, ijodiy va ilmiy ishlari, amaliy faoliyati hamda shaxsiy rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi kompleks elektron tizimdir. U talabaning kompetensiyalarini baholashda muhim daliliy asos vazifasini bajaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi - talabaning raqamli portfelidan kompetensiyalarni baholash tizimi sifatida foydalanishning nazariy-metodik asoslarini yoritish, uning afzalliklari va ta'lim jarayoniga joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Raqamli portfel tushunchasining ilmiy-pedagogik mohiyati.

Pedagogik adabiyotlarda "portfel" tushunchasi dastlab ta'lim oluvchining o'z faoliyat natijalarini jamlash va namoyish etish vositasi sifatida talqin qilingan. Shu kunga qadar an'anaviy portfel qog'oz shaklida yuritilgan bo'lib, unda talabaning yozma ishlari, sertifikatlari va baholash natijalari jamlangan. Raqamli texnologiyalar rivoji ushbu tushunchaning yangi - raqamli shaklini yuzaga keltirdi.


Raqamli portfel - bu talabaning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini elektron platforma orqali tizimli tarzda hujjatlashtiruvchi, saqlovchi va baholash imkonini beruvchi pedagogik vositadir. U faqat yakuniy natijalarni emas, balki o'quv jarayonidagi rivojlanish bosqichlarini ham aks ettiradi.



Raqamli portfelning turlari va tuzilmasi

Kompetensiya tushunchasi va kompetensiyaga asoslangan yondashuv.

Kompetensiya tushunchasi pedagogikada shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligi sifatida talqin etiladi. Kompetensiya bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlarning uyg'unlashgan majmuasidir.



Oliy ta'lim tizimida quyidagi asosiy kompetensiyalar ajratiladi:

- kasbiy kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya;
- axborot-kommunikatsion kompetensiya;
- ijtimoiy-faol kompetensiya;
- o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.

Raqamli portfel kompetensiyalarni baholashda daliliy yondashuvni ta'minlaydi. Har bir kompetensiya muayyan faoliyat mahsuli orqali tasdiqlanadi. Masalan, kommunikativ kompetensiya taqdimotlar, jamoaviy loyiha natijalari orqali, axborot kompetensiyasi esa raqamli resurslar bilan ishlash mahsullari orqali baholanadi.

Umumiy qilib aytganda talabanning raqamli portfeli kompetensiyaga asoslangan baholash tizimining samarali va zamonaviy vositasi hisoblanadi. U ta'lim jarayonida talabanning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi, baholashning obyektivligini oshiradi hamda oliy ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Raqamli portfelni tizimli joriy etish kelajakda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, talabanning raqamli portfeli kompetensiyaga asoslangan baholash tizimining samarali vositasi hisoblanadi. U ta'lim jarayonida talabanning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli portfelni ta'lim jarayoniga joriy etish oliy ta'lim sifatini oshirish, baholashning shaffof va adolatli mexanizmlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Иманова О. А., Смолянинова О. Г. Оценивание профессиональных компетенции магистров педагогики средствами электронного портфолио [Assessment of professional competencies of masters of pedagogy using electronic portfolio]. Информатика и образование, 2023, vol. 38, no. 1, pp. 45 – 54. DOI: 10.32517/0234-0453-2023-38-1-45-54. (In Russian).

2. Блинова В. И., Дидактическая концепция цифрового профессионального образования и обучения / Дидактическая концепция цифрового профессионального образования и обучения / Издательство «Перо» Москва 2019.

3. Abdullayeva B.S., Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, professor "Talabalarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish", International scientific and practical conference "challenges and solutions in the integration of digital technologies into the graphic education process", april 14, 2025.